

IJTIMOY-MADANIY MUHIT TANQIDIY FIKRLASH VOSITASI SIFATIDA.

Gulyamova A.O.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI doktoranti +998977059997

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7926213>

Anotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda va butun dunyodagi yoshlar orasida dolzarb muammoga aylangan tanqidiy fikrlash va uning ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liqligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, tanqidiy fikrlash, madaniyat, ob‘yektivlik, analistik fikrlash, fakt, xodisa.

Globallashib borayotgan hozirgi zamonda o‘sib kelayotgan yoshlar orasida juda ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib ulardan biri tanqidiy fiklashdir. O‘quvchi yoshlar tanqidiy fiklash orqali o‘z kelajagi, oldida turgan muammolar va bundan tashqari mavjud jarayonga nisbatan o‘z shaxsiy qarashiga ega bo‘la boshlaydi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni yaratuvchi jarayonlardan biri esa, bu – ijtimoiy-madaniy muhit hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy muhit bu – inson yashashi uchun yaratilgan muhitlardan biri bo‘lib, bir necha bosqichlarda o‘z aksini topgan. Inson ijtimoiylashishi uchun, avvalo unga yetarli jismoniy resurslar kerak. Shundan so‘ng inson ijtimoiy-madaniylashuvning oliy darajasiga ko‘tarila oladi. O‘quvchilarni ham anashu moddiy resurslar tanqidiy fikrlashga o‘rgata oladi. Masalan bir bola mashg‘ulot jarayonida o‘ziga kerakli o‘quv-qurollaridan birini topa olmayapti, mashg‘ulotda ishtirok etishi uchun unga kerakli bo‘lgan obyektni boshqa tinglovchidan so‘rashi yoki ayirboshlashi uchun unga albatta tanqidiy fikrlash yordamga keladi. Demak, ijtimoiy-madaniy muhit tanqidiy fikrlashga ko‘mak beruvchi jarayon ekani o‘z aksini topmoqda.

Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi bir qancha bosqichlar mavjud bo‘lib, ulardan biri bu – kuzatish hisoblanadi. Kuzatish bolalikdan olingan birinchi ko‘nikmalardan biridir. Ijtimoiy-madaniy muhiddagi kuzatishlarimiz o‘z fikrimizni shakllantirishga va voqelikni chuqurroq anglashimizga olib keladi.

Yana biri qiziqish hisoblanib unda, dunyoga va atrofdagi odamlarga qiziqish paydo bo‘la boshlaydi.

Ob‘ektivlik ham kata ahamiyatga ega bo‘lib, bizga dunyoqarashimiz va o‘tmishdagi tajribamiz kuchli ta’sir qiladi. Shunga qaramay, har doim vaziyatga imkon qadar xolis qarashga harakat qildi.

Analistik fikrlash, ya’ni axborotni tahlil qilish qobiliyati har qanday masalada muhim ahamiyatga ega: shartnoma imzolashda, hisobot yoki biznes-reja yozishda, hatto odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatishda katta ahamiyatga ega. Bu esa ijtimoiy-madaniy muhitsiz imkonsizdir.

Axborotning ahamiyatini aniqlash qobiliyati ham tanqidiy fikrlashning bosqichlari bo‘lib, bunda ma’lum bir vaziyatda qanday ma’lumotlarni taxlil qilish kerakligini tushunib yetish dolzarb va muhimdir. Barcha kiruvchi ma’lumotlar dastlab qimmatli ko‘rinadi, lekin bu har doim ham tasdiqlanmaydi. Ijtimoiy muhit doimo ma’lumotni to ‘g’ri yoki noto’g’ri ekanini taxlil qilishga yordam beradi.

Faktlarga asoslangan taxminlar qilish qobiliyati esa, doimo faktlar asosida xulosa chiqarishni va ko‘z oldimizga shu faktlar orqali mayjud xolatni keltirish imkonini beradi. Ammo faktlarga asoslangan taxminlar qilish qobiliyatini oddiy taxminlar bilan aralashtirib yubormang. Misol uchun, agar kimdir 118 kilogramm og‘irlikda ekanligini o‘qisangiz, bu odam ortiqcha

vaznli va sog'lig'i yomon deb o'ylishingiz mumkin. Xulosa qilish uchun esa avvalo siz uning balandligi va hajmini bilishingiz kerak.

Tanqidiy fikrlash uchun rahm-shafqat ortiqcha bo'lib tuyulishi mumkin, chunki sentimentallik va emotsiyonallik bizning idrokimizni buzadi. Ammo empatiyasiz, biz hamma narsaga faqat quruq ma'lumotlar va faktlar nuqtai nazaridan qaraymiz. Bu qarash tezda barcha sohalarga tarqaladi va biz hamma narsadan shubhalana boshlaymiz.

Samarali tanqidiy fikrlash uchun inson omilini hisobga olish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, biz duch keladigan vaziyatlarda nafaqat ma'lumotlar, balki odamlar ham muhimdir.

Har bir yangilikka ochiqlik ham tanqidiy fikrlashga yordam beradi. Har bir vaziyatga ochiq fikr bilan yondashish va boshqa odamlarning qarashlari va fikrlarini qabul qilish yaxshi natija berishi mumkinligi unutmasligimiz kerak. Barcha nuqtai nazarlarni bilmaguncha, u yoki bu tomona og ‘maslik ham tanqidiy fikrlash namunasidir.

Xodisalar orasidagi sababiy bog'liqlikning mavjudligini tushunib yetish esa ijtimoiy muhitda katta yordam beradi. Sababi atrofda bo'layotgan holat va uning sababini tushunib yetmagan o'quvchi, keljakni ham tasavvur qila olmaydi. Diqqati ham jamlanmaydi. Natijada esa pedagogik jarayonda ijobiy natija olish murakkablashadi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-madaniy muhit doimo uzviy bog'liqlikda mavjud bo'lib, ta'lif jarayonida o'z-o'zini to'ldirib turadi.

REFERENCES

1. Брюшинкин В. Н. Критическое мышление и аргументация // Критическое мышление, логика, аргументация / под ред. В. Н. Брюшинкина, В. И. Маркина. Калининград, 2003. С. 29—34.
2. 1. Сластенин, В. А., Каширин В. П. / Психология и педагогика [Текст] / В. А. Сластенин, В. П. Каширин - М.: Академия 2007-477с
3. 2. Орлова, В. А. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие [Текст] / Б.А. Орексова. - М.: КНОРУС, 2009. - 200 с.
4. Загашев И. О., Заир - Бек С. И., Муштавинская И. В. Учим детей мыслит критически. [Текст] / И. О. Загашев, С. Я. Заир-Бек, И. В. Муштавинская - Издание 2-е. - СПб: Альянс Дельта совм. с изданием «Речь», 2003–192с.